


Avtomobil transportida xalqaro yuklarni tashish asoslari

4-MAVZU

Reja

- ❖ Yuklar va ularning klassifikatsiyasiva transportirovka usullari va xavfsizlik darajasi.
- ❖ Yuklarning tashishning inter-multimodal va terminal tizimlari.
- ❖ Avtomobil transport orqali yuklar tashishning qulayligi

Yuklar va ularning klassifikatsiyasiva transportirovka usullari va xavfsizlik darajasi



Xalqaro avtomobil tashuvlari



Xalqaro avtomobil tashuvlari – bu yo‘lovchilar yoki yuklarni

- avtomobil transporti vositalari bilan avtomobil yo‘llari orqali tashishni anglatadi
- Ya‘ni barcha avtomobil tashuvlarini yo‘lovchilar va yuk tashuvlariga ajratish mumkin

Yuk tashuvlari yuk mashinalari yordamida amalga oshiriladi va quyidagi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi:

- Tarmoq xususiyatlariga ko‘ra sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo yuklari, oziq-ovqat mahsulotlari, pochta, aholining xususiy mulki tashuvlari;
- Yuk hajmiga ko‘ra bir tipli yukni yalpi tashuvi va kichik hajmli yuklarning mayda tashuvlari;
- Hududiy xususiyatiga ko‘ra shahar ichi, shahardan tashqari, xalqaro va yig‘ma yuk tashuvlari;
- Realizatsiya davriyligiga qarab, doimiy (butun yil davomida), sezonli yoki vaqtincha tashuvlarga bo‘linadi

Avtomobil transporti



Avtomobil transportining moddiy-texnik bazasi

- avtomobillar, tyagach,
- pritsep va yarimpritsep, avtotransport korxonolari
- avtomobil yo'llaridan iborat

Yuk avtomobillarini yuk ko'tarish qobiliyatiga qarab guruhlanadi:

- juda kichik – 0.5 tonnagacha,
- kichik – 0.5 tonnadan 2 tonnagacha,
- o'rtacha – 5 tonnadan 15 tonnagacha,
- juda katta – 15 tonnadan ortiq

Avtomobil tyagachlar

Tirkamalarni
shatakka olishga
moslashtirilgan
avtomobillardir

U yoki bu harakat
moslamasini
tanlashda
ekspluatatsion-
texnik xususiyatlarga

ekspluatatsiya shart-
sharoitlariga e'tibor
beriladi

Avtomobilning
ekspluatatsion-
texnik
xususiyatlari

uning gabaritlari,
og'irligi,
o'tuvchanligi,
barqarorligi

manevrlari, dinamik
va iqtisodiy
xususiyatlari kiradi.

Avtomobil tashuvlarida ko'p qo'llaniladigan uskunalar

"Konteyner" termini transport uskunasi

u katak, olinuvchi sisterna yoki shunga o'xshash moslashtirilgan uskuna bo'lishi mumkin:

- Konteyner yuklarni joylashtirishga mo'ljallangan, to'liq yoki qisman yopiq bo'lishi kerak;
- Ko'p marta ishlatishga yaroqli bo'lishi kerak;
- Yukni bir yoki bir necha turdagi transportlarda oraliq qayta ortishsiz tashuvni amalga oshirib, tashuv jarayonini osonlashtirishi kerak;
- Yuk oson ortilishi va oson tushirilishini ta'minlaydigan qilib, tuzilgan bo'lishi kerak;
- Ichki sig'imi 1 m. kubdan katta bo'lishi zarur.

Tara – bu mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchi

- shikastsiz yetkazish uchun ishlatiladigan qadoqlash vositasidir

Transport tarasi bir martali yoki qayta foydalaniladigan bo'lishi mumkin

- Taraga yashiklar, turli palletlar, qoplar, flyagalar,
- shisha ballonlar, korobkalar, bochka va shu kabi mahsulotlar

Yuk avtomobillari yuk koʻtarish qobiliyatiga koʻra

“Gazel” tipidagi yuk avtomobillariga

- shu xususiyatlarga ega milliy va xorijiy avtomobillarni kiritish mumkin

“Zil” tipidagi yukavtomobillarining

- hajmi 17 kub metr, yuk koʻtarish qobiliyati 3.5 tonnadir

5 tonna yuk koʻtarish

- qobiliyatiga ega yuk avtolarining sigʻimi 14-21 metr kub

10-15 tonna yuk koʻtarish

- qobiliyatiga ega boʻlgan yuk avtomobillarining sigʻimi 25 -60 metr kub

Yevrotent (yevrofura)

- standart gabarit oʻlchamlarga, polupritsepli avtomobilni bildiradi

Yuk avtomobillarining, pritseplar, polupritseplarning funksiyalari bo'yicha turlari:



Tent (yarimpritsep)

ko'p turdagi yuklarni tashishga mo'ljallangan



Refrijirator (yarimpritsep)

muzlatgichga ega bo'lgan polupritsepdir



Pritsepli yuk avtomobili (avtossepka)

katta foydali sig'im va tez ortish-tushirishga imkon beradi



"Jumbo"

kattalashtirilgan sig'imli yarimpritsep



Konteyner tashuvchi yuk avtomobili

turli xil konteynerlar tashishga mo'ljallangan

davomi



Avtotsisterna suyuqliklarni tashish uchun mo'ljallangan



Mikroavtobus kichik hajmli va vaznli yuklarni tashishga mo'ljallangan



Avtotashuvchi yengil avtomobillarni tashishga mo'ljallangan



Don tashuvchi don mahsulotlarini tashishda qo'llaniladi



Samosval qum va boshqa to'kiluvchan yuklarni tashishga ishlatidadi

Yuklarning tashishning inter-multimodal va terminal tizimlari

- An'anaviy transport kontrakti yuklarni bir joydan boshqasiga transport turlaridan biri bilan transportirovka
- Konteynerlash va butlashning boshqa turlari
- Kemaga oid bo'lmagan Yalpi Tashuv (NVOCC) kema egasi
- «Jamg'aruvchi» transportirovka multimodal transportirovkalarning maxsus shakli

Transportirovka jarayonlari



Unimodal transportirovka jarayonlarida tashish bittadan ortiq yuk tashuvchi

Bosqichma-bosqich transportirovka bilan subtransportirovka

Bosqichma-bosqich transportirovkada bitta va aynan o'sha kontrakt asosida transportirovka


Subtransportirovka farqlovchi shakl bo'lib, kontraktni imzolagan yuk tashuvchi

Charter orqali yuk tashish

Hozirgi kunda charter orqali yuk tashish amalga oshirilishida charterlarning har xil turlari mavjud:

- - «Bo'sh turgan kema» yoki «dimayz charter» fraxt kontrakti
- Fraxtlovchi egasidan samolyot yoki kemani yollaydi hamda kema yoki samolyotni boshqarish
- - Dimayz charterga asoslanmagan fraxt kontraktlari

(Kemalarni) buksirlash kontraktlari yoki yuklangan transport vositalarini avtomobil transportida transportirovka qilish



Yuk jo'natuvchi va yuk tashuvchi

Yuk ekspeditori yuk jo'natuvchi-komitent va yuk tashuvchi o'rtasidagi yoki yuk oluvchi va tashuvchi o'rtasidagi vositachi sifatida ish ko'radi



yuk jo'natuvchining dalolatnomasi bo'yicha yuk transportirovkasini amalga oshirish

u yukni jo'natish joyidan belgilangan nuqtagacha tashish majburiyatini oluvchi yuk tashuvchi hisoblanmaydi

O'zi transportirofkani bajarayotgan ekspeditor yuk tashuvchi javobgarligini zimmasiga oladi

Transportirovka kontrakti yuk jo'natuvchi va yuk tashuvchi o'rtasida tuziladi



Ayrim Konvensiyalarda «jo'natuvchi» yoki «yuk jo'natuvchi» atamasi «komitent» atamasi bilan almashtirilgan

yuk, yuk jo'natuvchi tomonidan emas, balki boshqa shaxs tomonidan transportirovka uchun yetkazilishi ham mumkin

yukni oluvchi esa tranzit to'xtatish asosida yoki boshqa bir yukni oluvchining familiyasi ko'rsatilganligi natijasida yukni satarruf etish huquqidan mahrum bo'ladi

Dengiz transportirovkalari:

a) To'g'ridan-to'g'ri bitim:

b) Charter bitim:
fraxt kontrakti

Yuklarni transportirovka qilish



Yuk tashuvchining javobgarligi


Yuk unga transportirovka uchun yetkazilgan paytdan boshlanadi va bu yuk belgilangan nuqtada yukni oluvchiga yetkazilgan paytda nihoyasiga yetadi

Gaaga qoidalari va Gaaga-Visbu qoidalari yuk transportirovkasi yukni kema boriga yuklash paytidan to yukni kemadan tushirish paytiga qadar o'tgan vaqtni qamrab olishini kafolatlaydi

Gaaga-Visbu qoidalari va CMR Konvensiyasi evaziga tovon talab etiladigan va tovarlarning qiymati

Konvensiyalar faqat ma'lum shartlar munosabati bilan sodir bo'lgan tovar talofati va xarajatdan ortiqchasini to'lash

Avtomobil transport orqali yuklar tashishning qulayligi



Bozor iqtisodiyoti

Transport xizmatlariga bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini tavsiflovchi barcha omillar

Eng avvalo, bu omillarga mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi

neft bahosining, valyuta narxlarining o'zgarishlari

davlatning TIFga aralashish darajasi

turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy munosabatlari holati ni kiritish mumkin

Xavfli yuklar

Alohida xavfli yuklar –
tashishda
ehtiyotkorlikning alohida
choralarini talab etadigan

xavflilikning yuqori
darajasidagi fizik-kimyoviy
xossalarga ega bo'lgan
moddalar va materiallar

Xavfli yuklar
avtotransport orqali
tashilganda


ular BMTning Yevropa
Iqtisodiy Komissiyasi
eksperlar Qo'mitasi
tomonidan ishlab chiqilgan
kriteriyalar bo'yicha
turkumlanadi.

ADR konvensiyasiga ko'ra xatarli yuklar quyidagi sinflarga ajratiladi:



1-daraja –

- portlovchi moddalar (PM);



2-daraja -

- siqilgan, suyultirilgan va bosim ostida eritilgan gazlar;

4-daraja –

- yengil alanganadigan qattiq moddalar (YEAQM), o'zidan-o'zi yonadigan moddalar (O'O'YOM), suv bilan o'zaro aloqada alanganuvchi gazlarni ajratib chiqaradigan moddalar;



3-daraja –

- yengil alanganadigan suyuqliklar (YEAS);



davomi



5-daraja – oksidlovchi moddalar (OM) va organik peroksidlar;



6-daraja – zaharli moddalar (ZM) va infitsirlangan moddalar (IM);

7-daraja – radioaktiv materiallar (RM);



8-daraja – o'yuvchi va (yoki) korrozion moddalar (O'K)

Xavfli yuklarni transportda tashish yoʻnalishlarini kelishish

Yukni tashuvchi tashish boshlanishidan kamida oʻn kun oldin hududi boʻylab xavfli yukni tashish moʻljallanayotgan hududiy yoʻl harakati xavfsizligi boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) belgilangan shakl boʻyicha tashishning ishlab chiqilgan yoʻnalishi uch nusxada;

b) avtotransport vositasini xavfli yuklarni tashishga qoʻyish toʻgʻrisidagi guvohnoma;

v) alohida xavfli yuklar uchun qoʻshimcha ravishda yukni joʻnatuvchi (yukni oluvchi) tomonidan taqdim etilgan xavfli yukni tashishga maxsus yoʻriqnoma;

g)
"Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasining xavfli yuklarni tashish uchun sigʻim (konteynerlar, sisternalar, konteyner-sisternalar va hokazolar)ning yaroqliligi toʻgʻrisidagi xulosasi;

d) avtotransport haydovchisi xavfli yuklarni tashishga qoʻyilishi toʻgʻrisidagi guvohnoma;

ye) boshqa tegishli vakolatlar bilan kelishilgan hujjatlar.

Xavfli yuklarni tashishda doimiy band bo'lgan avtotransport vositalari

Kuzovi, avtotsisternalar, tirkamalar va yarim tirkama-sisternalar ushbu xavfli yuklar uchun belgilangan tanituvchi rangga bo'yalishi va quyidagi tegishli yozuvlar yozilishi kerak:

a) metanolni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) "Metanol - zahar!" qoplama bo'yicha to'q sariq yozuvli va qora polosali to'q sariq rangga bo'yaladi;

b) ammiakni tashishda - avtotransport vositasining rangi har qanday rangda bo'ladi va "Ammiakli suv - YOng'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

v) suvga tekkanida tez alanganadigan gazlar chiqaradigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi ko'k rangga bo'yaladi va "YOng'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

davomi

g) o'zi yonadigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna)ning quyi qismi qizil rangga bo'yaladi, yuqori qismi oq rangga bo'yaladi va qora rangda "Yong'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;



d) tez alanganadigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) to'q sariq rangga bo'yaladi va "YOng'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;



ye) yonishni kuchaytiradigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) sariq rangga bo'yaladi va ikki marta "YOng'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;



j) o'yuvchi moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) qoplama bo'ylab qora polosali sariq rangga bo'yaladi, unga sariq rangli "O'yuvchi modda" degan yozuv yoziladi.

